
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH, AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH BO'YICHA HOKIM YORDAMCHILARNING JORIY YILNING YANVAR-AVGUST OYLARIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLARI TO'G'RISIDA MA'LUMOT



Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hokim yordamchilarning joriy yilning yanvar-avgust oylarida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida ma'lumot

Tumandagi 27 ta MFY-larda mavjud bo'lgan barcha xonadonlar ya'ni 13802 ta xonadonlar to'liq xatlovdan o'tkazildi. O'tkazilgan xatlovda xonadonlarning iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli bo'yicha 3 ta toifalarga ajratib olindi.

1-toifaga mansub kam ta'minlangan, ehtiyojmand daromadi past xonadonlar soni 4 243 ta (30,6%);

2-toifaga mansub xonadon a'zolarining jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik daromadlari 498 ming sumdan 1 500 ming so'mgacha bo'lgan xonadonlar soni 5 359 ta (39%);

3-toifaga mansub yashash sharoiti yaxshi, o'ziga to'q xonadonlar soni 4 244 ta (30,4%);

Mahalladagi hokim yordamchilari tomonidan ishsiz aholini ishga joylashtirish bo'yicha qo'yidagi ishlar amalga oshirildi:

Xatlovda aniqlangan ishsiz fuqarolarning 5 131 nafarini bandligi ta'minlandi.

Jumladan:

Doimiy va mavsumiy ish joylariga - 3

122 nafar ishsiz fuqarolarni;

Haq to'lanadigan jamoat ishlariga - 393 nafar ishsiz fuqarolarni;

~~Mehnatga layoqatli ishsiz yoki norasmiy band aholini - 750 nafar fuqarolarni o'zini o'zi band qilish orqali bandligi ta'minlandi.~~

Hozirgi kunda asosiy e'tibor yangi korxonalarni tashkil etish va faoliyat yuritayotgan korxonalarning quvvatini oshirish hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilmoqda. Bu borada tumanda hokim yordamchilari tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida joriy yilning 8 oyi davomida jami 255 ta, shundan 145 ta kichik biznes va 110 ta yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-09-20 17:09:46